

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan ijro intizomini samarali
tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 25-iyulda **“Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 117-sonli Farmon qabul qilinib, unga ko‘ra Prezident **Farmon, qaror, farmoyish** va **topshiriqlari** hamda hukumat **qaror** va **topshiriqlari ijrosini tashkil etish** va **nazorat qilishning yanada samarali mexanizmlari** yo‘lga qo‘yildi.

Bu bilan, Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarida berilgan tegishli topshiriqlar ijrosini ta‘minlash maqsadida **“O‘zsanoatqurilishbank” ATB** tomonidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, bankda ijro intizomiga bevosita mas‘ul mustaqil tarkibiy bo‘linma sifatida **Ijroni boshqarish va rivojlantirishni tahlil qilish departamenti** faoliyati tashkil etilgan bo‘lib, bankda **ish yuritish** va **ijro nazoratini tashkil etish**da xat-hujjatlarning **elektron aylanishi** yo‘lga qo‘yilgan.

Jumladan, bugungi kunda, ushbu **elektron dastur** orqali:

- qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar kelib tushgan vaqtdan boshlab **30 daqiqa** mobaynida Ijro departamenti mas‘ul xodimi tomonidan **ro‘yxatdan o‘tkaziladi** hamda **rahbariyatga axborot beriladi**;

- rahbariyat **bir kun muddatda** mas‘ul ijrochini belgilagan holda **tegishli topshiriqlarni beradi**;

- **belgilangan muddat** doirasida mas‘ul ijrochi tomonidan topshiriq ijrosi bo‘yicha ma‘lumotlar va hujjatlar rahbardan elektron tasdiqlanib, **tegishli tashkilotlarga yuboriladi**.

Ushbu elektron dastur orqali topshiriqlarning bajarilish jarayoni doimiy nazorat qilinadi, belgilangan muddatlarda ijro etilishini monitoring qilish, ijro intizomini tahlil qilish va hisobotlarni shakllantirish imkoniyatlari yaratilgan.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida **2025-yil yakuni** bilan (30-dekabr holatiga) **“Ijro.gov.uz”** tizimi orqali **quyidagi ijro mexanizmlari** yo‘lga qo‘yilgan:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning **59 ta** Farmon, **133 ta** qaror, **3 ta** farmoyish va **207 ta** bayonlarining tegishli bandlari orqali O‘zsanoatqurilishbankka **1 693 ta** topshiriqlar kelib tushgan bo‘lib, **1 445 tasi (85 foizi)** ning

ijrosi to'liq ta'minlangan. Qolgan **248 ta** topshiriq muddatlari kelmagan bo'lib, belgilangan muddatda bajarilishi yuzasidan zaruriy choralar ko'rib borilmoqda;

- O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi topshiriqlari yuzasidan **34 ta** hujjatning tegishli bandlari orqali bankka **105 ta** topshiriqlar kelib tushgan bo'lib, shundan, **73 tasi (70 foizi)** ning ijrosi to'liq ta'minlangan. Qolgan **32 ta** topshiriq muddatlari kelmagan bo'lib, belgilangan muddatda bajarilishi yuzasidan zaruriy choralar ko'rib borilmoqda;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **165 ta** hujjatlari tegishli bandlari orqali bankka **319 ta** topshiriqlar kelib tushgan bo'lib, shundan, **288 tasi (90 foizi)** ning ijrosi to'liq ta'minlangan. Qolgan **31 ta** topshiriq muddatlari kelmagan bo'lib, belgilangan muddatda bajarilishi yuzasidan zaruriy choralar ko'rib borilmoqda.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda "O'zsanoatqurilishbank" ATB mas'ul bo'lgan muddati o'tgan topshiriqlar **mavjud emas**.

Berilgan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida, to'liq hamda sifatli ta'minlash maqsadida, o'rnatilgan tartibda **barcha zarur choralar** ko'rib kelinmoqda:

birinchidan, **har haftaning juma kuni** Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari huzurida "**ljro.gov.uz**" elektron tizimi orqali kelib tushgan topshiriqlar hamda maqsadli ko'rsatkichlarning bajarilishi holati muhokama qilinadi. Shuningdek, **har haftaning dushanba kuni** Boshqaruv raisi boshchiligida ijro intizomi yo'nalishidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish masalalari yuzasidan yig'ilishlar o'tkaziladi;

ikkinchidan, **haftada bir marotaba** rais o'rinbosarlari boshchiligida maqsadli ko'rsatkichlarni bajarilish holatini tegishli tarkibiy bo'linmalar bilan birgalikda ko'rib chiqilib, muhokama qilinmoqda.

uchinchidan, **har oyyakuni bo'yicha** bank Boshqaruvining kengaytirilgan yig'ilishlarida **maqsadli ko'rsatkichlarni bajarilishiga mas'ul xodimlarning javobgarligini oshirish** maqsadida bank Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari kesimida har bir maqsadli ko'rsatkich tanqidiy muhokama qilingan holda, tegishli choralar ko'rib borilmoqda;

to'rtinchidan, reja-grafikka muvofiq, bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari va mintaqaviy hamda bank xizmatlari markazlari mas'ul xodimlarining bilim va ko'nikmalari oshirish maqsadida **iqtisodiy o'qishlar** tashkil etilmoqda.

Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari ijrosini ta'minlash maqsadida bank tizimida **kunlik nazorat** o'rnatilgan bo'lib, **topshiriqlar ijro holati** yuzasidan **belgilangan muddatlarda hisobot** kiritib boriladi.